



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

J. Oripov¹, D. Ro'ziyeva²

¹ Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi o'qituvchisi

² Samarqand viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli 60-sonli
"Nurli maskan" maktab-internati o'qituvchisi

YOSHLARDA AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI AXLOQIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINING O'RNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada mualliflar tomonidan yoshlarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati, tizimning vazifalari, shuningdek, axloqiy immunitetning mazmunini va uning xususiyatlari hamda axloqiy immunitetni shakllantirishning muhim jihatlari borasidagi xulosa va takliflar nazariy asosda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, axborot xuruji, axloqiy immunitet, axborot kommunikatsion texnologiyalari, Islom odobi, fundamental bilim, axloqiy immunitetning mazmuni.

Yangi O'zbekiston sharoitida mamlakatimiz taraqqiyotining poydevorini yaratuvchisi bo'lgan yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va dunyoqarashini kengaytirish, shuningdek, ta'lim olishlari, axborot kommunikatsion texnologiyalari, IT va boshqa sohalarning yetuk mutaxassislari bo'lib kamol topishlari hamda ularning ilmiy salohiyatini oshirishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish davlatimiz siyosatining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, bugungi globallashuv va axborot asrida, axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishning muhim omili sifatida ta'lim tizimida, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, milliy ongi va tafakkurini rivojlantirish bilan bog'liq chora-tadbirlarning

sifat-samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarini yanada takomillashtirishning strategik yoʻnalishlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalash, ularning ongi va tafakkurini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, taʼlim-tarbiyasi masalasini ijobiy hal etish har qanday huquqiy-demokratik davlatning asosiy bosh maqsadi va vazifasi boʻlib kelgan. Ayniqsa, bugungi Yangi Oʻzbekiston sharoitida yoshlarga munosib turmush sharoitini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan vazifalarni strategik yoʻnalishlarini belgilash, yoshlarning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasi, ularning ongi va tafakkurini rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirish hamda taʼlim olishlari bilan bogʻliq jarayonlar davlatimiz rahbarining diqqat markazidagi muhim masalalardan biri boʻlib kelmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev *“Ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi”* mavzusidagi anjumanida soʻzlagan nutqlarida: *“Bizni hamisha oʻylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish turishi, bir soʻz bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bogʻliq. Bugun zamon shiddat bilan oʻzgarimoqda. Bu oʻzgarishlarni hammadan ham koʻproq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar oʻz davrining talablari bilan uygʻun boʻlsin. Lekin ayni paytda oʻzligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulugʻ zotlarning avlodimiz, degan daʼvat ularning qalbida doimo aks-sado berib, oʻzligiga sodiq qolishiga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va tarbiya hisobidan”*[1], - deb taʼkidlaganlarini yuqoridagi fikrlarimizning dalili sifatida keltirishimiz mumkin.

Haqiqatdan ham tarbiya, yosh avlodni insoniy fazilatlar, barkamol shaxs, komil inson va islom odobi normalari asosida voyaga yetkazishning asosiy vositasi boʻlib hisoblanadi. Shu sababdan ham tarbiya va u bilan uygʻun holda taʼlim masalasi qadimdan ajdodlarimiz tomonidan oʻrganilib, tadqiq etib kelinayotgan dolzarb mavzulardan biri boʻlib kelgan, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Masalan, Kaykavusning *“Qobusnoma”*, Saʼdiyning *“Guliston”*, *“Boʻston”*, Abdurahmon Jomiyning *“Bahoriston”*, Alisher Navoiyning *“Mahbub-ul qulub”*, Husayin Voiz Koshifiyning *“Axloqiy Muhsiniy”* va boshqa koʻplab donishmadlarimiz tomonidan bitilgan asarlarning asosiy mazmunini yoshlarni islom odobi, milliy tarbiyamiz tamoyillari asosida tarbiyalash va ularni komil, barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishga qaratilgan gʻoyalar tashkil etgan. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bunday maʼnaviy meros doimo taʼlimiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda koʻprik vazifasini bajaruvchi dasturulamal, qoʻllanma boʻlib kelgan. Shuning uchun ham mazkur merosdan taʼlim va tarbiya jarayonida samarali foydalanishning maqbul yechimlarini topib, amaliyotga joriy etish doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.

Yosh avlodni tarbiya, maʼnaviyat, axloq va islomiy odob meʼyorlarini oʻzida mujassam etgan milliy maʼnaviy merosimiz namunalarini oʻrgatish va shu asosida tarbiyalashda taʼlim tizimi asosiy vosita boʻlib hisoblanadi. Shuningdek, taʼlim tizimida maʼnaviy-marifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish orqali yoshlarni olam, fazo va borliqda amal qiluvchi qonuniyatlar, tarix, axloq-odob meʼyorlari, axloqiy-estetik qadriyatlarining inson kamolatida tutgan oʻrni haqida chuqur bilimlar singdirib boriladi.

Modomiki, jamiyatda taʼlim tizimi insonni shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiylashuvi, olam va odam va ularning axloqiy mohiyati borasidagi bilimlarini rivojlantirish vositasi sifatida, bugungi globallashuv davrida yoshlarda maʼnaviy-mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishning eng muhim omillaridan biri

hisoblanadi. Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishning muqobil yechimlarini topishning metodologik asoslarini ishlab chiqish va uning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish aynan, ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirishda ta'lim tizimi quyidagi:

- yoshlarga axborot xuruji va axborot tahdidi, shuningdek, axloqiy immunitet o'rtasidagi umumiy o'xshash jihatlari va tafavvutlari borasidagi ilmiy tushunchalar, fundamental nazariy-amaliy bilimlarni berish bevosita jonli aloqada, o'zaro muloqot vositasida amalga oshirish;
- yoshlar axloqiy immunitetning xususiyatlari borasidagi fundamaental bilimlarni yozma, og'zaki, savol-javob va amaliy mashg'ulolar asosida o'zlashtirish;
- yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirish va uning muhim jihatlari borasida o'zlashtirilgan bilimlar, ilmiy dalillarni hayotda qo'llashga o'rgatish;
- eng muhimi, ta'lim tizimida yoshlarning ehtiyojlarini o'rganish orqali keyingi o'quv faoliyatini tadrijiylik asosida tashkil etish hamda taqdimotlar bilan tushuntirish;
- ta'lim tizimida qo'yilgan muammolarni yechish imkoniyatining mavjudligi, fanlarni o'zlashtirishda integratsiyani ta'minlash va o'quvchilarni fanlararo yo'nalishlar kesimida qiziqishlarni orttirish;
- yoshlarga zamonaviy ilg'or tajribalar asosida ta'lim berish orqali ularning shaxsiy intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning maqbul yo'llarini ishlab chiqish orqali ularni o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish imkoniyatlarining mavjudligi kabi o'ziga xos jihatlariga ega.

Biz yuqorida yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirishda ta'lim tizimining muhim jihatlari sanab o'tdik. Mazkur jihatlarni chuqur tahlil qilish natijasida ta'lim olishning mazmunini aniqlash va shu orqali ta'lim tizimining maqsadi belgilanadi.

Suqrotning fikricha ta'lim olishni mazmuni shundaki, avvalo, qalbni davolash kerak. Qalbni kerak bo'lmagan axborotdan tozalash, o'tkinchi shunchaki yolg'on qadriyatlardan qutilib o'z o'zidan ochilib, o'z o'ziga realizatsiya qilish uchun maydon ochilishi kerak. Shundan so'ng qalb potensiali uni kreativ imkoniyati biz o'ylaganimizdan ham ko'proq bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchini muhim vazifasi shunday jarayonki u o'quvchini qalbini uyg'otish. Qalbni uyg'otish uchun o'qituvchi o'quvchini shaxsiy hayoti va ijodida o'z yo'lini topishga ko'maklashishi kerak. [2]

Suqrotning mazkur fikri bugungi texnologiyalar yuksak darajada rivojlangan, zamonaviy axborot asrida ham o'zining ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Haqiqatdan ham ta'lim tizimi Suqrot davrida bo'lganidek, o'quvchining qalbini olam haqidagi bilimlar bilan boyitish, xolis va noxolis axborotlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash hamda zarurlarini saralab olish imkoniyatini beruvchi, bilimlar ayriboshlanadigan, o'zlashtiriladigan makon sifatidagi vazifasi o'zgargani yo'q, faqat tizimning bunday funksiyalari zamon talablari darajasida takomillashib, rivojlanib bormoqda xolos. Bunda o'qituvchilar o'quvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda ularning qalbidan joy olishlari ya'ni bu borada o'qituvchilar faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, balki o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llashda yoshlarga o'rnak bo'lish amaliyoti, bugungi zamonaviy ta'limning asosiy sharti bo'lib qolmoqda.

Darhaqiqat, globallashuv davri va axborot asri ta'lim tizimining bir qator vazifalarini mazmunan boyishi va mohiyatan o'zgarishiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, axborot tahdidi hamda axborot xurujlarining xususiyatlarini tushuntirish va ularga qarshi kurashda muhim bo'lgan tamoyillarni o'quvchilarning ongi va qalbiga singdirish orqali ularda axloqiy immunitetni shakllantirish singari vazifalar shular jumlasidandir.

Shunday ekan, axloqiy immunitetning mazmunini tashkil etuvchi xususiyatlarning bog'liq jihatlarni tadqiq etish va tushuntirib borish, natijalarni aniqlash, shuningdek, yoshlarni hayot tarziga aylantirishning maqbul yechimlarni topish hamda muqobil usullarini ishlab chiqish, ta'lim tizimida yoshlarning axloqiy immunitetini shakllantirishga qaratilgan faoliyatni samarali tashkil etish va axloqiy immunitetning mazmunini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Axloqiy immunitetning mazmuni quyidagilardan:

- ✓ milliy xotirani uyg'otish, milliy o'zlikni anglash va axloqiy me'yorlarning mezonlarini aniqlashga o'rgatish;
- ✓ xalqimizni tub maqsadlarini ifodasi sifatida jamiyatda muayyan axloqiy mezonlar asosida birlashtirishga undovchi harakat manbai bo'lish;
- ✓ insonning qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan axloqiy tushuncha va tuyg'ular, axloqiy tamoyillar tizimini o'zida mujassam etish;
- ✓ har bir fuqaroning ezgu niyatlarini ro'yobga chiqarish imkonini beradigan axloqiy tamoyillarning eng maqbullarini belgilab olish;
- ✓ millat va jamiyatni muayyan tamoyillar asosida birlashtiruvchi manba sifatida yuksak ishonch-e'tiqodga yo'naltiruvchi kuch bo'lish;
- ✓ mamlakatimizda yashovchi barcha millat, elat, xalq va din vakillariga birdek taaluqli bo'lgan mezon bo'lish;
- ✓ axloqiy immunitet ijtimoiy fenomen va hodisa sifatida subyektivizm, volyuntarizm kabi illatlardan holi, har qanday insonni ezgulikka chorlaydigan g'oyalar atrofida birlashtiruvchi hamda shu g'oyaga barchani birdek amal qilishga undovchi adolat, erkinlik qat'iy fuqarolik va o'zining hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga qaratilgan ezgu insoniy fazilatlar majmuidan iborat.

Axloqiy immunitetning mazmunini tashkil etuvchi elementlar bilan tahsil oluvchilarni tanishtirish, ularning ruhiyati, ongi va qalbiga axloqiy fazilatlarni singdirishda o'rta maktab, akademik litsey, professional va oliy ta'lim bosqichidagi darslarda ilg'or tajribalar, interaktiv usullar, innovatsion texnologiyalarni qo'llash, fanlararo aloqadorlikni ta'minlash, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkoniyatining mavjud ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimining har bir bosqichida tashkil etilayotgan darslar mazmun va qamrov jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Ya'ni tizimning har bir bosqichi o'ziga xos funksiyalarga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Ta'lim tizimning ahamiyati va uning imkoniyatlarini chuqur anglab yetgan prezidentimiz, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar xususida to'xtalib: "Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlardan ko'zlangan maqsad barkamol, sog'lom avlodni zamonaviy va milliy ruhda bilim olish imkoniyatlarini, ular ongiga bunyodkor g'oyani singdirishning izchil tizimini yaratishdan iboratdir", - deb ta'kidlaydilar. [3]

Ta’kidlash lozimki, jamiyatdagi ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi yangilanishlar, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, olam va odam hamda ularning mohiyatini tushuntirish, shuningdek, yoshlarni mustaqil fikrga ega, dunyoqarashi keng, intellektual salohiyati yuksak shaxs sifatida tarbiyalash bugungi ta’lim tizimining asosiy vazifasi hisoblanadi. Mazkur masalada yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Yoshlarni yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirish, ularni barkamol avlod sifatida voyaga yetkazish jamiyatimizning barcha jabhalarida bo‘lganidek, ta’lim muassasalarining ham eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangan” [4], - deb ta’kidladilar.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda axborot xurujlariga qarshi axloqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan faoliyatni tashkil etishda ta’lim tizimi, *birinchidan*, tizimning barcha bosqichlarida ma’naviy – ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish, muammoni yechimiga oid har bir mavzuni yoritish jarayonida ta’lim oluvchilarni ehtiyojlarini hisobga olgan holda yuqori darajada bilimlar berish, *ikkinchidan*, yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirish va ularni milliy axloqiy tamoyillar, insonga xos axloqiy sifatlar bilan tarbiyalashda keng imkoniyatlarining mavjudligi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. <http://uza.uz/oz/politics/shavkat-mirziyeev-yeshlar-terbiyasi-eng-mu-im-masalalardan-16-06-2017>.
2. Князева Е.Н. “Основания синергетики”. М: издательство Ком Книга 2007. 232-страница.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. –Т.: О‘qituvchi MU MCHJ, 2021. – 184 б.
4. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4623 “О мерах по дальнейшему развитию сферы педагогического образования” от 27 февраля 2020 года //Маърифат. -Т., 2020. -4 марта. - Б.1-2.
5. Raximqulova, M. (2021). TA’LIMGA INNOVATSION YONDASHUV–O’QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 118-121.